

SOG'IN SIGIRLARDA MASTITLARNING ASOSIY TURLARI VA KLINIK
BELGILARI

Ibroimjon Nosirjon o'g'li Aminovning

*To'raqo'rg'on Agrotexnologiyalari texnikumi
maxsus fan o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada sigirlarda mastit kasalligining asosiy turlari va klinik belgilarini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarining tahlili bayon etilgan.

Kalit so'zlar . Zardobli mastit, kataral mastit, fibrinoz mastit, yiringli mastit, dimastinli namuna, mastidinli namuna, sutni cho'ktirish namunasi, kazien parchalarini aniqlash namunasi .

Mavzuning dolzarbligi. Yangilanayotgan O'zbekistonda iqtisodiyotni tubdan rivojlantirish aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot ko'lamini ko'paytirish qishloq xo'jaligining chorvachilik sohasi muhim o'rin egallaydi. Xozirda O'zbekistonning 2022-2030 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida aholini turmush darajasini oshirish yo'lida, qishloq xo'jaligining chorvachilik tarmog'ida iste'molchilarni sifatli chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlash, ozuq-ovqat xavfsizligiga amal qilish va yetishtirilayotgan chorva mollarini kasalliklarga cholinishini oldini olish, profilaktika ishlarini tashkil etish ahamiyatli. Respublikamizdagi aholini arzon va sifatli chorvachilik mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga qaratilgan agrar islohotlarning amalga oshirilishida chorva mollari kasalliklari, shu jumladan sigirlarning mastit kasalligi katta tosiqlardan biri hisoblanadi. Chunki mazkur kasallik bugungi kunda ham mahalliy, ham chetdan keltirilgan qoramollar orasida keng tarqalgan bo'lib, nafaqat sut sifati va miqdoriga, balki ona hayvonlarning pushtdorlik ko'rsatgichlariga katta salbiy ta'sir ko'rsatib, kasal sigirlarning oriqlab ketish va hatto majburan so'yilishi hollarining ko'payishi evaziga fermer xo'jaliklariga zarar keltirmoqda.

Xususan respublikamizning fermer xo'jaliklari sharoitida mastit oqibatida sigirlarning sud mahsuldorligi o'rtacha 15-20% ga, sutning yog'lilik darajasining 0.8-1% ga kamayishi, sigirlarning xo'jalikda foydalanish muddatlarining esa 2-3 yilga qisqarishi, qisir qolish, buzoqlarning dispepsiya bilan kasallanish darajasining ortishi, shuningdek, kasal sigirlardan olingan sut orqali yosh bolalarda qizamiq

(skarlatina) kasalligining qo'zg'atilishi, mastitning ijtimoiy ahamiyatga ham molik kasallik ekanligidan dalolat beradi .

Ayni paytda, maxsuldor qoramollar orasida mastit kasalligining turlari va tarqalishini aniqlash, tashxis, samarali davolash hamda oldini olish usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarb tadqiqotlar hisoblanadi.



A.P.Studentsov tasnifi bo'yicha mastitning zardobli, kataral, fibrinli, yiringli (absessli, yiringli- kataral,flegmonoz) va gemorragik turlari farqlanadi. Bundan tashqari yuqumli tabiatli (oqsil, tuberkulyoz, aktinamikoz va boshqa infeksiyalar oqibatida paydo bo'ladigon) klinik namoyon bo'ladigon, yashirin, o'tkir, yarim o'tkir va surunkali, laktatsion va nolaktatsion mastitlar farqlanadi.



Ma'lumotlarga ko'ra, zardobli mastit paytida yelin shishib kattalashgan, qizargan bo'ladi, yelinning jaroxatlangan qismi nisbatan kattalashib, zichlashadi, og'riqli bo'lib, mahalli harorati ko'tariladi.Yelin

usti limfa tugunlari kattalashadi paypaslab ko'rilganda og'riqli bo'ladi. Hayvonning sut berishi kamayadi, sut suvsimon konsistensiyada va tarkibida kazein parchalari bo'ladi. Zardobli mastit bilan og'riqan hayvonda umumiy holsizlanish, ishtahaning pasayishi va tana haroratining ko'tarilishi qayd etiladi. Mastitning bu turi odatda yengil kechib, yallig'lanishli shish paydo bo'lishi bilan cheklanadi.

Fibrinli mastit- kataral mastitning asorati sifatida yoki mustaqil ravishda qon orqali yiringli endometrit, travmatik servisit, yiringli perikardit paytlarida mikroorganizmlarning yelin to'qimasiga tushishi oqibatida rivojlanadi. Yelinni bu turdagi yallig'lanishinig xarakterli belgisi sut yo'llari shilliq pardasiga yoki to'qimalariga fibrinni qondan sizib o'tishi hisoblanadi. Sigirlarda ko'pincha yelinning yiringli-fibrinli yallig'lanishi qayd etiladi. Fibrin sut sisternasida odatda yellingning bezli to'qimalariga shimilgan holda to'planib, qon aylanishining buzulishi, yelin parenximasining nekrozi va yumshab qolishiga sabab bo'ladi.

Klinik namoyon bo'ladigon mastitlarni diagnostikasida- asosan kasallik belgilariga asoslanadi. Yashirin mastitni aniqlash uchun sigirlar kamida xar oyda bir marta dispenser ko'rigidan o'tkaziladi. Bunda laborator tekshirish usullarida bakteriologik (patogen mikroorganizmlarni topish) sitologik (leykositlar sonini aniqlash) va kolorimetrik (yelinning zararlangan bo'lagidan pH kursoratgichining 6.8 va undan yuqori bo'lishi) hamda sutda bromtimol usullaridan foydalaniladi.



Yashirin mastitni aniqlashda hozirgi paytda zamonaviy tekshirish usullaridan SEO' (sutning elektr o'tkazuvchanligi) va BA-04 indikatiri yordamida kazein lahtasini aniqlash usullaridan foydalaniladi.

Tadqiqot ob'yektlari va usublari . Tadqiqotlar 2023-2024 yillar davomida Namangan viloyatining qoramolchilik fermer xo'jaliklarga qarashli sog'in sigirlarda mastitlarning tarqalishi, asosiy turlari(kataral,

qonli, zardobli mastitlar) va sabablarini o'rganish maqsadida dispanser tadqiqotlar o'tkazilib poda sindromatikasi, hayvonlarni parvarishlanishi va oziqlantirilishi, sigirlarni sog'ish texnologiyasiga rioya qilinishi tahlil qilindi.

Sigirlarning oziqa ratsioni tarkibi, to'yimliliigi va sog'in sigirlar organism ehtiyojlarini qondirishda darajasi o'rganildi.

Sog'in sigirlarning mastit bilan kasallanish darajasini o'rganish maqsadida ularda umumiy qabul qilingan usullar yordamida klinik tekshirishlar o'tkazildi, shuningdek, yelin terisi, sut bezi parenximasi va yelin so'rg'ichlarining xolati o'rganildi. 12 bosh sog'in sigirlardan sut namunalari olinib, MKP-1sut plastinkasi yordamida 5% li dimastin bilan sinama o'tkazilib sigirlarning yashirin mastit bilan kasallanish darajasi o'rganildi.



Olingan natijalar tahlili. Tajribadagi 12 bosh mastit bilan kasallanganligi gumon qilingan sigirlarning 4 boshidan olingan sut namunalarida MKP-1 sut plastinkasidagi sutning konsistensiyasi o'zgarmadi(sinama salbiy), 3 bosh sigirda qisman o'zgarish kuzatildi (sinama noaniq) va 5 bosh sigirlardan olingan sut namunalarida sut quyqalari borligi (sinama ijobiy) borligi aniqlandi.

Xulosa. Sog'in sigirlar orasida mastit keng tarqalgan bo'lib, tekshirilgan 12 bosh sigirning 5 tasi subklinik mastit bilan kasallanganligi aniqlandi, bu o'rtacha 41.6% ni tashkil etadi.

2. Sigirlarning zardobli mastitida yelin shishib kattalashadi, qizaradi, yelin usti limfa tugunlari kattalashib, sutning tarkibida kazein parchalarining bo'lishi kabi belgilar bilan xarakterlanib ushbu belgilarning kuzatilishi diagnoz uchun asos bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Uchebnik pod redaksiey V. Ya. Nikitina i professora M. G.Mirolyubova Veterinarnoe akusherstvo, ginekologiya i biotexnika razmnojeniya Moskva „Kolos“ 1999
2. Veterinarniy ensklopedicheskiy slovar pod.red.V.P.Shishkova Moskva ensklopediya 1981 285-286 str.
3. I.S.Koba Usovershenvovanie kompleksnoy farmokoterapii pri ostrom poslerodovom mastite bakterialno-mikoznoy etiologiya